

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Biologiya, ekologiya va dorivor o‘simliklar” kafedrasida assistenti B.X.Aliyevning Ekologiya va atrof-muxit muhofazasi ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Shahar va sanoat ekologiyasi” fanidan “Energetika sanoatining atrof-muhitga ta’siri” mavzusidagi ochiq darsiga

TAQRIZ



“Energetika sanoatining atrof-muhitga ta’siri” mavzusi ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishidagi eng dolzarb va muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotini energetika tarmog‘isiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biroq energiya ishlab chiqarish jarayonlari atrof-muhitga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu mavzu talabalar ongida ekologik muammolarni anglash, ularning sabab va oqibatlarini tushunish hamda muhofaza choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzida energiya ishlab chiqarishning turli manbalari mavjud bo‘lib, ular an’anaviy (ko‘mir, neft, gaz), yadro va qayta tiklanuvchi energetika turlariga bo‘linadi. Har bir energetika turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, atrof-muhitga ta’siri ham turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg‘ining yonishi natijasida atmosferaga zararli gazlar chiqariladi, bu esa iqlim o‘zgarishi va havoning ifloslanishiga olib keladi. Suv resurslaridan foydalanish esa gidroekotizimlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Energetika sanoatining atrof-muhitga ta’siri asosan atmosfera, suv va tuproq ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda global ekologik muammolar shakllanishida namoyon bo‘ladi. Atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid va boshqa zararli gazlar issiqxona effektini kuchaytiradi. Suv resurslarining ifloslanishi suv organizmlariga salbiy ta’sir etsa, tuproqning zaharlanishi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligiga zarar yetkazadi. Shu sababli energetika sohasida ekologik muvozanatni ta’minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va zamonaviy toza texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Biologiya, ekologiya va dorivor o‘simliklar kafedrasida assistenti B.X.Aliyevning Ekologiya va atrof-muxit muhofazasi ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Shahar va sanoat ekologiyasi” fanidan “Energetika sanoatining atrof-muhitga ta’siri” mavzusidagi ochiq darsi ochiq darslar uchun quyilgan barcha talablarga javob beradi.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
“Biologiya, ekologiya va dorivor
o‘simliklar” kafedrasida professori, t.f.d.**



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar" kafedrasida assistenti B.X.Aliyevning Ekologiya va atrof-muxit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalariga "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan "Energetika sanoatining atrof-muhitga ta'siri" mavzusidagi ochiq darsiga

TAQRIZ

"Energetika sanoatining atrof-muhitga ta'siri" mavzusi ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishidagi eng dolzarb va muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotini energetika tarmog'isiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biroq energiya ishlab chiqarish jarayonlari atrof-muhitga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu mavzu talabalar ongida ekologik muammolarni anglash, ularning sabab va oqibatlarini tushunish hamda muhofaza choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzida energiya ishlab chiqarishning turli manbalari mavjud bo'lib, ular an'anaviy (ko'mir, neft, gaz), yadro va qayta tiklanuvchi energetika turlariga bo'linadi. Har bir energetika turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, atrof-muhitga ta'siri ham turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'ining yonishi natijasida atmosferaga zararli gazlar chiqariladi, bu esa iqlim o'zgarishi va havoning ifloslanishiga olib keladi. Suv resurslaridan foydalanish esa gidroekotizimlarga ta'sir ko'rsatadi.

Energetika sanoatining atrof-muhitga ta'siri asosan atmosfera, suv va tuproq ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda global ekologik muammolar shakllanishida namoyon bo'ladi. Atmosferaga chiqarilayotgan karbonat anhidrid va boshqa zararli gazlar issiqxona effektini kuchaytiradi. Suv resurslarining ifloslanishi suv organizmlariga salbiy ta'sir etsa, tuproqning zaharlanishi qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga zarar yetkazadi. Shu sababli energetika sohasida ekologik muvozanatni ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va zamonaviy toza texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrasida assistenti B.X.Aliyevning Ekologiya va atrof-muxit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalariga "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan "Energetika sanoatining atrof-muhitga ta'siri" mavzusidagi ochiq darsi ochiq darslar uchun quyilgan barcha talablarga javob beradi.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Ekologiya va hayot faoliyati
xavfsizligi kafedrasida dotsenti, b.f.f.d.(PhD).

ning imzosini
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi boshlig'i

S.A. Suyarov

XODIMLAR
BO'LIMI